



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI
HAY’AT YIG‘ILISHI BAYONI**

2025-yil 7-aprel

№ 2

Toshkent sh

- Hay’at raisi** A. Abduxakimov – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri
- Ishtirok etdilar:** O. Qudratov – vazirning birinchi o‘rinbosari, J. Kazbekov – vazir o‘rinbosari, I. Qutbiddinov – vazir o‘rinbosari, U. Shadiyev – Turizm qo‘mitasi raisi, E. Muhitdinov – O‘rmon xo‘jaligi agentligi direktori, Sh. Xabibullayev – Gidrometeorologiya xizmati agentligi direktori
- Taklif etilganlar:** K. Saytov – Vazirlar Mahkamasi mas’ul xodimi, B. Xolxo‘jayev – Vazirlar Mahkamasi mas’ul xodimi
- Qatnashganlar:** Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya boshqarmalari boshliqlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son Farmoni ijrosi holati to‘g‘risida

(Abduxakimov, Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov, Shadiyev, Muhitdinov, Xabibullayev, Abduxakimov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son Farmoni va u bilan Davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda – Farmon va Davlat dasturi) 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsaddan iborat. Davlat dasturida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga jami 294 ta topshiriq (shundan 224 tasi asosiy ijrochi sifatida), xususan 42 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

Jumladan, fevral oyida vazirlik va uning tizim tashkilotlari asosiy ijrochi etib belgilangan 7 ta (F-26-band, 7-ilova 26.1-band, 7-ilova 41.1-band, 7-ilova 41.2-band, 7-ilova 42.1-band, 7-ilova 42.2-band va 8-ilova 35-band) topshiriqlar ijrosi to'liq ta'minlandi.

Mart oyida vazirlik va uning tizim tashkilotlari asosiy ijrochi etib belgilangan 9 ta (1-ilova 26-band, 7-ilova 26.2-band, 7-ilova 34.2-band, 7-ilova 41.3-band, 7-ilova 42.3-band, 7-ilova 43.1-band, 8-ilova 14-band, 18-ilova 1.1-band va 7-ilova 49.1-band) topshiriqlar ijrosi to'liq ta'minlandi.

Fevral va mart oylarida vazirlik tomonidan Davlat dasturi ijrosi doirasida 3 ta normativ-hujjat loyihalari vazirlik tomonidan ishlab chiqilib, tegishli vazirlik idoralar bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 145-F-son farmoyishi bilan joriy yilda respublikamizda 200 mln tup (bahorda 125 mln, kuzda 75 mln) daraxt va buta ko'chatlari ekish belgilanib, hozirgi kunga qadar bahor mavsumida 132,0 mln tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi 87-F-son farmoyishi bilan, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasida 250 ming gektar maydonda "yashil qoplamalar" – himoya o'rmonzorlari barpo etish belgilab olindi.

Hozirgi vaqtga qadar Orol dengizining qurigan tubida 71 ming gektar va Orolbo'yi mintaqasida 53.5 ming (Xorazmda 15 ming, Navoiyda 16,2 ming gektar va Buxoroda 22,3 ming) jami 124.5 ming gektar "yashil qoplama"lar barpo etildi.

Aprel oyida vazirlik va uning tizim tashkilotlari Davlat dasturining 16 ta bandida asosiy ijrochi etib belgilangan bo'lib, bugungi kunda 2 ta topshiriq ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni ijrosini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Davlat dasturi bilan vazirlik asosiy ijrochi etib belgilangan fevral oyida 7 ta, mart oyida 9 ta topshiriqlar ijrosi to'liq ta'minlangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat dasturi topshiriqlari ijrosi uchun mas'ul vazirlik tarkibiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari:

uch kun muddatda aprel-iyun oylariga belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash uchun kiritsin;

topshiriqlar ijro etilishi holatini **har dushanba kuni** muhokama qilib borsin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Davlat dasturini so'zsiz, sifatli va to'liq amalga oshirish vazirlik tizimidagi barcha darajadagi rahbar va xodimlarning **birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi** hisoblanadi.

vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati barcha tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari Davlat dasturida har chorak kesimida tegishli yo‘nalish va hudud bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishish, nazarda tutilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va zarur normativ-huquqiy hujjat loyihalarini o‘z vaqtida va puxta ishlab uchun **shaxsan javobgar**.

4. Vazirning birinchi o‘rinbosari O.Qudratov, vazir o‘rinbosarlari I.Qutbiddinov, J.Kazbekov har oy yakuni bo‘yicha Farmon va Davlat dasturi, ularning maqsad va vazifalarini o‘z vaqtida hamda samarali bajarilishini muvofiqlashtirib, tanqidiy muhokamalarni o‘tkazilsin va topshiriqlarni o‘z vaqtida, to‘liq bajarmagan mas’ul rahbarlarga nisbatan choralar ko‘rish yuzasidan takliflar kiritib borsin.

5. Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Tagayev) joriy yil 20-aprelga qadar:

Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi nazoratini samaradorligini tubdan oshirish, ularning xodimlarini maxsus vosita va transportlar bilan ta’minlash;

Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash masalalari bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish choralari ko‘rsin.

6. O‘rmon xo‘jaligi agentligi (Muhitdinov) joriy yil 20-aprelga qadar:

Cho‘l, tog‘li va tog‘oldi hududlarda cho‘llanish va qum ko‘chishi, tuproqning suv va shamol eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o‘rmonlarini (ihota) davom ettirish choralari ko‘rilsin;

Daraxt va buta urug‘lari tayyorlashni oshirish choralari ko‘rsin.

7. Davlat kadastrini yuritish va geoaxborot tizimlarini joriy etish bo‘limi (Xurramov) joriy yil 20-aprelga qadar “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida respublika hududidagi 450 ming tup daraxtlarni raqamlashtirish orqali ularning pasportini yaratishda aerokosmik tasvirlar va dasturiy vositalardan foydalangan holda mavjud daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish ishlarini boshlasin.

8. Yashil o‘sish va iqlim o‘zgarishi departamenti (Temirov) joriy yil 20-aprelga qadar “Orol vodiysi” iqlim texnologiyalari ekspozitsiyasini tashkil etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish choralari ko‘rsin.

9. Bioxilmaxillik siyosatini yuritish bo‘limi (Kazakov) joriy yil 20-aprelga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi hamda davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish, ko‘chirib o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlardan faqat qonun bilan ozod qilish mexanizmlarini joriy qilish hamda shu paytgacha berilgan imtiyozlarni bekor qilishni ko‘zda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish choralari ko‘rsin.

10. **Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va ekofaollar bilan ishlash bo‘limi** (Abdullayeva) **joriy yil 20-aprelga qadar** Ekologik muammolar va ularning yechimlariga bag‘ishlangan “Eko-oringoh — 2025”ni tashkil etish yuzasidan vazirlik, idoralar va hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhni shakllantirish choralari ko‘rsin.

11. **Vazirlikning barcha tarkibiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linmalari** Davlat dasturi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma‘lumotlarni, **har oyning 25-sanasiga qadar** Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig‘ma axborot-tahlil boshqarmasiga taqdim etib borishni ta‘minlasin.

12. **Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig‘ma axborot-tahlil boshqarmasi** (Qurbonov) Farmon ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma‘lumotlarni **har oyning 28-kuniga qadar** Vazirlar Mahkamasi, Strategik islohotlar agentligi, Adliya vazirligi, Hisob palatasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi hamda “Yuksalish” umummilliy harakatiga kiritib borilishini ta‘minlasin.

13. Ushbu Hay‘at yig‘ilishi bayonining ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosarlari O. Qudratov, J. Kazbekov va I. Qutbiddinov zimmasiga yuklatilsin.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori talablari asosida “ijro.gov.uz” tizimida 2025-yil mart oyiga belgilangan topshiriqlar ijrosi yakunlari hamda aprel oyida bajarilishi lozim bo‘lgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar to‘g‘risida

(Abduxakimov, Qudratov, Qutbiddinov, Kazbekov, Xasanov, Muxitdinov, Boboyev, Nazarov, Temirov, Xojabekova, Qurbonov, Mamasoliyev, G‘ulomov, Abdullayeva, Xurramov, Qurbonov, Raxmanbayeva, Talipov, Pardayev, Kazakbayeva, Rixsiyev, Kuvandikov, Elmurodov, Xamidullayev, Sattarov, Djurayev, Nurulloyev, Muxamedov, Babamuradov, Akramxujayev, Hasanov, Xusainov, Abduxakimov)

I. Yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan “ijro.gov.uz” tizimida 2025-yilning mart va aprel oylarida bajarilishi belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish hamda bayonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hujjatlaridagi topshiriqlar ijrosining borishi muhokama etildi.

Joriy yil 1-aprel holatiga ko‘ra, mart oyiga belgilangan 173 ta topshiriq ijrosi to‘liq ta‘minlandi, **aprel oyi** yakuniga qadar bajarilishi belgilangan **jami** topshiriqlar **105 tani** tashkil etib, shundan **29 tasi** (27,6 %) bajarildi.

Ijrosiga doir asoslantiruvchi hujjatlar Adliya vazirligi va Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan hamda Hisob palatasi tomonidan ma‘qullangan topshiriqlar **14 tani** (13,3 %) tashkil etadi.

Shundan kelib chiqib, aprel oyi yakuniga qadar vazirlik tomonidan **62 ta** topshiriqni bajarish lozim bo'ladi.

Yig'ilishda aprel oyining yakuniga qadar bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlarining amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisobotlari eshitildi.

Muhokamalarda ayrim topshiriqlar ijrosi yuzasidan mas'ullar tomonidan **sustkashlikka** yo'l qo'yilayotganligi tanqid qilindi.

Xususan, ijro muddatlari 1 dan 5 aprelgacha bo'lgan topshiriqlar ijrosining borishi tahlili **Turizm qo'mitasi** (Shadiyev)da – **2 ta**, **Gidrometeorologiya xizmati agentligi** (Habibullaev), **Davlat xaridlari bo'limi** (Kuvandikov) hamda Vazirlikda **yoshlar yetakchisi** (Zabiyev)da – **1 tadan** topshiriq ijrosiga doir ma'lumotlar tizimga kiritilmaganligini ko'rsatdi.

Muhokamalar jarayonida ijrosida sustkashlikka yo'l qo'yilayotgan topshiriqlar ijrosini **to'liq hajmda va sifatli ta'minlash** bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rish yuzasidan tegishli yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, aprel oyining yakuniga qadar **O'rmon xo'jaligi agentligi** (Muxitdinov) – **8 ta**, **O'rmon va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish hamda cho'llanishga qarshi kurashish boshqarmasi** (Nazarov), **Moliya-iqtisod boshqarmasi** (Mamasoliyev) hamda **Hududiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ekoturizmni rivojlantirish bo'limi** (Muminov) – **5 tadan**, **Turizm qo'mitasi** (Shadiyev), **Iqlim o'zgarishi milliy markazi** (Sattarov), **Eko-media markazi** (Ashurov), **Volontyorlar va ekofaollar bilan ishlash bo'limi** (Abdullayeva) hamda **Vazir maslahatchisi** (Raxmanbayeva) – **3 tadan**, **Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi** (Qurbonov), **Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi** (G'ulomov), **Davlat kadastrini yuritish va geoaxborot tizimlarini joriy etish bo'limi** (Xurramov) hamda **Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi DM** (Nurulloyev) – **2 tadan**, vazirlikning yana jami 10 ta **tarkibiy bo'linmasi** va **tizim tashkilotida** (*mas'ullar*: Habibullayev, Babamuradov, Akramxujayev, Hasanov, Yunusov, Qurbonov, Pardayev, Kazakbayeva, Kazakov, Zabiyev) – **1 tadan** topshiriq ijrosini ta'minlashlari lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Yig'ilishda mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida olib borilayotgan ishlar tanqidiy muhokama qilinib, kamchiliklar ko'rsatib o'tildi, kamchiliklarni bartaraf etish, ishlarni jadallashtirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi, barcha topshiriqlar ijrosini **aprel oyining 25-sanasigacha** yakunlash vazifasi qo'yildi.

Aprel oyida tayyorlanishi ko'zda tutilgan **normativ-huquqiy hujjatlar** loyihalarini tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish, ularni **moliyaviy, iqtisodiy** va **huquqiy** ekspertizadan o'tkazish ishlarini jadallashtirish masalalari atroflicha muhokama qilinib, hujjat loyihalarini muddatlaridan kechiktirmasdan Vazirlar Mahkamasiga kiritish lozimligi yana bir bor ta'kidlanib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar muhokama qilinib, yig'ilish **qaror qiladi**:

1. Turizm qo'mitasi (Shadiyev)ga, **Gidrometeorologiya xizmati agentligi** (Habibullayev)ga, **Davlat xaridlari bo'limi** (Kuvandikov)ga hamda **vazirlik yoshlar yetakchisi** (Zabiyev)ga aprel oyi topshiriqlari ijrosini ta'minlashda sustkashlikka yo'l qo'yayotganligi ko'rsatib o'tilsin.

Ko'rsatib o'tilgan mas'ullarga **bir kun muddatda** sustkashlikka yo'l qo'yilgan topshiriqlar ijrosini jadallashtirish hamda topshiriqlar ijrosini to'liq ta'minlash choralari ko'rish topshirilsin.

2. Quyidagi normativ-huquqiy hujjat loyihalarini **joriy yil 5-apreldan kechiktirmasdan** huquqiy ekspertiza xulosasini olish uchun Adliya vazirligiga kiritish ta'minlansin:

a) mamlakatimiz hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi hamda davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish, ko'chirib o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlardan faqat qonun bilan ozod qilish mexanizmlarini joriy qilish hamda shu paytgacha berilgan imtiyozlarni bekor qilishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi, mas'ul: **Bioxilmaxillik siyosatini yuritish bo'limi** (Kazakov);

b) atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash masalalari bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi, mas'ul: **Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi** (Qurbonov).

3. Vazir o'rinbosarlari (Qudratov, Qutbiddinov, Kazbekov):

ijrosida sustkashlikka yo'l qo'yilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlar sifatli tayyorlanishini va tizimga kiritilishini qat'iy nazoratga olsin, topshiriqlarning nazoratdan olinishi yuzasidan vakolatli organlar bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirsin;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosining **kunlik muhokamasini talabchanlik asosida** o'tkazilishini ta'minlasin, tasdiqlangan **"Yo'l xarita"larida** ko'zda tutilgan tadbirlarning o'z muddatlarida to'liq amalga oshirilishiga erishsin;

tayyorlanishi ko'zda tutilgan **normativ-huquqiy hujjatlar** loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun Adliya vazirligiga belgilangan muddatlarda kiritish ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin;

muddat buzilishiga yo'l qo'ygan mas'ul rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy chora ko'rish yuzasidan takliflar kiritilsin.

4. Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlari:

joriy aprel oyi uchun belgilangan topshiriqlar ijrosini tasdiqlangan kunlik kalendar grafikka va **"Yo'l xaritalari"**ga muvofiq ta'minlash choralari ko'rsin;

topshiriqlar ijrosiga doir tasdiqlovchi hujjatlarning haqqoniy, sifatli tayyorlanishiga e'tiborni kuchaytirsin;

muddat buzilishiga yo'l qo'ygan mas'ul rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy chora ko'rish yuzasidan takliflar kiritsin.

5. Nazorat, ijro intizomi va murojaatlarni ko'rib chiqish bo'limi
(Xusainov):

sustkashlikka yo'l qo'yilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha mas'ul ijrochilar tomonidan olib borilayotgan ishlarning holati yuzasidan **kunlik** axborot kiritib borsin;

"ijro.gov.uz" elektron hujjat aylanishi tizimida nazoratga olingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari, shuningdek, vazirlik va idoralardan kelib tushgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash jarayonida ijro intizomini buzgan departament, boshqarma, bo'lim boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlariga nisbatan intizomiy choralarni qo'llash bo'yicha takliflarni **haftaning har dushanba va juma kunlari o'tkazib boriladigan** muhokamalarga kiritib borsin.

6. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini uni nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari O. Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

Hay'at raisi



A. Abduxakimov